

## QO‘L HARAKATLI NOVERBAL IFODALARNING BADIY MATNDAGI AHAMIYATI

**Keldiyorova Zarinabonu**

ToshDO ‘TAU talabasi

E-mail: [keldiyorovazarinabonu@gmail.com](mailto:keldiyorovazarinabonu@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada verbal va noverbal ifodalarning kommunikatsiya jarayonida tutadigan o‘rni, noverbal harakatlar va ularning ahamiyati, ijtimoiy hayot va badiiy matndagi roli haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Til, nutq, muloqot, kommunikatsiya, verbal ifoda, noverbal (verbal bo‘lmagan) ifoda, kommunikator, resipient

### ABSTRACT

This article describes the role of verbal and non-verbal expressions in the communication process, non-verbal actions and their importance, social life and role in artistic text.

**Keywords:** Language, speech, communication, verbal expression, communicator, recipient.

Ma'lumki, til jamiyatga, ya'ni odamlarning muloqot qilishiga xizmat qiladi. Shu sababdan ham til ijtimoiy hodisa sanaladi. Til insonlarga nutq tuzish imkonini berar ekan, ko'rinadiki, nutq faqat individlar uchungina xos bo'lib, fikrni bayon etish vositasidir. Nutq monologik yoki dialogik shaklda yuzaga chiqsa-da, ammo undan ko'zlangan maqsad axborot yetkazishdir. Fransuz yozuvchisi A.S. Ekzyuperi "Muloqot-shunday ne'matki, u orqali inson lazzatlanadi" deya muloqotning axborot berishdan boshqa xususiyatlariga ham alohida urg'u bergan. Berilayotgan axborotning ta'sirliligi, jo'yaliligi va yana shu kabi qator kommunikativ jihatlari adresant(axborot beruvchi)ning nutqiy salohiyatiga bog'liq. Muloqot jarayonini tashkil etishda individ(lar)+til+nutq+mavzu=muloqot strukturasiidan foydalanish o'rinli. Ammo muloqot jarayonini tashkil etishda faqatgina nutq emas, boshqa vositalar ham borki, ushbu vositalarning muhimlik darajasi yuqoridir. Shulardan biri noverbal (verbal bo'lmagan) vositalar hisoblanadi. Kommunikatsiya esa o'z o'rnida verbal(nutqli) va noverbal(nutqsiz) bo'ladi. Xo'sh, noverbal ifodalarning kishilik jamiyatida ahamiyati qanchalik muhim? Dastlab, noverbal ifodalar haqida to'xtalsak, ushbu ifodalar og'zaki

muloqotda nutq ishtirokisiz, faqat imo-ishoralar, mimikalar, xatti-harakatlar orqali fikrni ifodalash, yetqazish va qabul qilish jarayonidir. Ushbu atama fanga ilk bor 1956-yilda psixiatr Yurgen Ruesch va Weldon Kies tomonidan kiritilgan.

Noverbal muloqotning kundalik shaxsiy hayotda, balki ijtimoiy hayotda ham o'zni katta. So'zlovchi doimo xoh diologik nutqda bo'lsin, xoh monologik o'z so'z zahirasida mavjud ta'sir doirasi yuqori bo'lgan jumalardan foydalanishga harakat qiladi. Nutqning adresat(tinglovchi)ga qay darajada ta'sir eta olishi esa adresant(so'zlovchi)ning kommunikativ salohiyatiga bog'liq. Faqatgina so'zlardan foydalanish axborotning yetib borish koefsientini tushirishi mumkin. Shu bilan birga, ta'sir qilish ko'lamini ham. Bunday hollarda esa noverbal ifodalardan foydalanish, ayniqsa, ahamiyatli. Chunki ushbu ifodalar nutqning tushunarlilik darajasini oshiradi, o'ziga jalb qila oladi(masalan, so'zlovchi tinglovchining ko'ziga tik qarab gapirishi), vaziyatga ayni o'z holatini so'zsiz ifodalay olishi( bosh barmoqni yuqoriga yoki pastga qilish orqali "yaxshi" yoki "yomon" deyishlik), shuningdek, xuddi shu harakat bilan kayfiyatini ham ifodalay olish mumkin. Publisiy ta'kidlaganidek, "Ovoz bilan gapiramiz, tana bilan suhbatlashamiz". Bunda so'z takrori, bixilliklarning oldi olinadi.

Noverbal ifodalarning qator turlari bor: jestlar (qo'l harakati), mimika(yuz harakati), pantomimika(qo'l, oyoq, tana harakatlari). Shulardan qo'l harakatlarining ijtimoiy hayotda va badiiy matnda tutgan o'zni haqida fikr yuritish o'rinli. Ijtimoiy hayotda biz uchratadigan qator jestli (qo'l harakatli) harakatlar bor. Jumladan ,

1. qo'lni musht qilib, tashqi tomoni ko'rsatilsa, negativ ma'no, ya'ni, harakat bajaruvchisining jahli chiqqanligini ifodalaydi. Agar shu holda ichki tomon ko'rsatilsa, ruhan birgalikni bildiradi;

2. bosh barmoq va jimjiloq barmoqdan boshqa barmoqlar bukilib, quloqqa tutish – demak telefon qilishingiz zarurligi so'ralmoqda;

3. qarsak chalish-maqtov, tabrik, qutlov ma'nolarini bildirsa-da, biroq jamoat joyida bir kishing qarsagi atrofdagilarning diqqatini jalb etishda foydalaniladi;

4. ko'rsatgich barmoqni lab va burun orasiga qo'yish- tinchlik saqlashni;

5. ko'rsatgich barmoqni peshonaning chet qismiga qo'yib, shu barmoqni aylantirish – esing joyidami? kabi so'roq ma'noda;

6. boshni ikki qo'lni orasiga olib, qattiq siqish- muammolar ko'pligi, bosh qattiq og'riyotganligini;

7. serqatnov yo'llarda avtomobil to'xtatish uchun bitta qo'lni 90 gradus yonga cho'zish;

8. o'tirgan holatda barmoqlarni birlashtirish va stol ustiga qo'yish- bajaruvchida hech qanday muammo yo'q va u suhbatdoshini eshitishga tayyor;

9. agar ikki kishi qo'l berib ko'rishganda ikkala qo'l bilan ham siqsa, demak, ular orasida ishonch mustahkam;

10. peshonani tirishtirish yoki ko'rsatgich barmoq yordamida peshonani qashlash-harakat bajaruvchisining ikkilanayotganini anglatadi;

Shuningdek, faqat ma'lum ijtimoiy sohalar uchungina xos bo'lgan noverbal ifodalar ham mavjud. Xususan, jismoniy mashqlar jarayonida bitta qo'lni yuqoriga ko'tarib, hushtak chalib pastga tushirish-yugurish uchun komanda berilganligini, harbiy xizmatchilar orasida "salomlashish" – ches berish, ba'zi hududlarda o'quvchilar orasida nazorat testi variantlarini "A" bo'lsa, og'izni ochish orqali, "B" bo'lsa, burunni ko'rsatish orqali, "C" bo'lsa, quloqni ko'rsatish orqali va "D" bo'lsa, jim turish bilan ifodalash mumkin

-Hujjatim yo'q. Kirgizisharmikin?

-Men bor-ku!-deb qichqirdi Akbarali kulib. Eshitmadi deb o'ylab, *ko'kragiga urib ko'rsatdi*: - Men, men! [A.Muxtor, 2018: 238]

Agar ushbu matnda" *ko'kragiga urib ko'rsatdi*" jumlasini ishtirok etmaganda o'quvchi muallifning ifodalamoqchi bo'lgan fikriga tushunmasdi. Birgina shu jumla orqali ko'rsatish funksiyasi bajarilgan.

Ko'rinadiki, so'zlovchi verbal harakatini noverbal harakati bilan to'ldirdi. Ya'ni, noverbal harakat qahramonning ruhiy holat portretini ochishga xizmat qilgan.

U Shohsanam edi, yonidagi esa Akbar. Bir necha daqiqa avval Akbar va Xolida o'rtasidagi yaqin munosabatni ishqiy aloqa deya Farhodni aldagandim, shu tobda uning o'rniga Shohsanam haqida bo'hton to'qimaganim uchun ich-etimni yedim. Mana , darrov isbotlanardi, eh!... Omadim chopmagani uchun o'zimni *chimchilab*, labimni qattiq tishladim. [A.Qorjobov, 2017: 37 ]

Monologdan anglashiladiki, kommunikator o'z ishidan pushaymonligini, xato ish qilganligi o'z harakatlarida ko'rsatib bergan. Agar muallif qahramonning ruhiy holatini faqatgina so'z bilan ifodalasa, bunda o'quvchi muloqot jarayonini to'laligicha tasavvur eta olmasdi va bu holat real tarzda yuzaga chiqmasdi.

-Endi "Anrapoloji"ga o'tamizmi? - deya taklif qildi.

-Men uyga ketsam kerak, -rad qilgan bo'ldim.

-Mayli, mayli, hechqisi yo'q. Azizam, tez-tez uchrashib turishimiz kerak. - U mening *yelkalarimdan quchgancha* ikki yuzimdan cho'lp-cho'lp o'pib, jo'nab qoldi. [Jon Grin,2020:38]

Umuman olganda, noverbal ifodalar badiiy matn uchun muhim va zaruriy qismlaridan biridir. Zero, badiiy matnda mavjud qahramonlar xarakteriskasi, mavqeyi, ishlash o‘rni, kayfiyati-yu o‘zini tutishi, ayni ruhiy ichki olamini ochishda noverbal ifodalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu, albatta, o‘z o‘rnida badiiy matn (badiiy asar)ning o‘qishliligi hamda tushunarlilik darajasi, ta’sir ko‘lamini oshirishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. A.Nurmonov.Tanlangan asarlar.Jild1.-T:akademik nashr,2012:301
2. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilov.Umumiy psixologiya.T-2010:334
3. I.Yo‘ldoshev, O‘.Sharipova.Tilshunoslik asoslari.-T.:Iqtisod-moliya nashr,2007:92
4. R.Safarova. Leksik –semantik munosabatning turlari .-T.:O‘qituvchi nashr,1996:48.